

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN MUHANDISLIK-PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

Kasb talimi(Informatika va AT) kafedrasi

**Freemake Video Converter dasturi imkoniyatlarini
o`rgatuvchi dasturiy ta`minot yaratish**

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Ilmiy rahbar _____ dots. S.Xashimov

Namangan - 2016

Mundarija

Kirish.....	3
1-bob. O'rgatuvchi elektron ishlanmalar bo'yicha mavjud manbalar tahlili	6
1.1. O'rgatuvchi elektron ishlanmalar yaratish va foydalanish bo'yicha mavjud manbalar tahlili	6
1.2. O'quv jarayonlarini tashkil etish va mustaqil O'rganishda O'rgatuvchi elektron ishlanmalardan foydalanish samaradorligi	7
1.3. Freemake Video Converter dasturi bo'yicha elektron dasturiy ta'minot yaratish masalasining qO'yilishi.....	9
2-bob. Elektron ishlanmalarni yaratishda foydalaniladigan dasturiy vositalar	10
2.1. Elektron dasturiy mahsulotlarni yaratishda foydalaniladigan dasturiy vositalar.....	10
2.2. O'rgatuvchi dasturiy mahsulotlarni yaratishda SnagIt hamda CamtasiaStudio7 dasturi imkoniyatlari	12
2.3. O'rgatuvchi elektron qO'llanma yaratishda WebBuilder imkoniyatlaridan foydalanish.....	14
3-bob. Freemake Video Converter dasturi imkoniyatlarini o'rgatuvchi dasturiy ishlanma yaratish	19
3.1. Freemake Video Converter dasturi imkoniyatlariga oid manbalarni shakllantirish.....	19
3.2. O'rgatuvchi dasturiy ta'minot yaratish loyihasini ishlab chiqish.....	Ошибка! Закладка не определена.
3.3. Freemake Video Converter dasturi imkoniyatlarini o'rgatuvchi dasturiy ta'minot yaratish texnologiyasi	22
3.4. Yaratilgan dasturiy mahsulotdan foydalanish yo'riqnomasi	22
4-bob. Hayot faoliyati xavfsizligi.....	26
4.1. Elektron metodik tavsiyalar yaratishda kompyuter bilan ishlash qoidalar.....	26
4.2. Elektron didaktik vositalar yaratishda kompyuter bilan ishlash vaqtida insonning charchash sabablari	27
Xulosa	29
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	30

Kirish

“Odamlarga bitta baliq bersangiz,
ular bir kun tO`q bO`lishadi;
ularga baliq ovlashni
O`rgatsangiz bir umr tO`q
bO`ladi”
Konfusiy

Mavzuning dolzarbligi. Prezidentimiz I.A.Karimov Uzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining siyosiy-ijtimoiy va iktisodiy istikbolning asosiy tamoyillarini bayon qilar ekan madaniy-ma`rifiy sohadagi ishlarga mustakil respublikamizda ma`naviyatini rivojlantirish masalalariga xam alohida to`xtalib, quyidagilarni ta`kidladi: “Endigi asosiy vazifa kishilarimizni mustaqil fikrlashga o`rganishi, o`ziga ishonchining ortib borishidir. Chunki tafakkur ozod bo`lmasa, ong va shukur tarzidan qullikdan qutulmasa, inson to`la ozod bulmaydi”.

So`nggi ikki o`n yillikda ta`lim sohasida ko`plab o`zgarishlar ro`y berdi. Mening fikrimcha, “Qanday qilib darsni qiziqroq o`tsam bo`ladi?”,” Nima qilsam o`quvchini o`z fanimga qiziqтира olaman?”, “Qanday qilib har bir o`quvchi uchun darsni alohida muvaffaqiyatli tashkil eta olaman?” kabi savollar har bir o`qituvchi oldida turgan eng dolzarb masala hisoblanadi. Har bir zamonaviy o`qituvchi, o`quvchi yoki talaba uning darsida o`z hohishi, qiziqishi bilan, ijodiy yondashib ishlashini istaydi. Axir aynan qiziqish talabalar ish faoliyati, ular rivojlanishining asosiy mezonini hisoblanadi.

Bugungi kunda ta`lim berishning asosiy maqsadi – faqatgina o`quvchi tomonidan ma`lum bilim va ko`nikmalarni to`plash emas, balki o`quvchini ta`lim faoliyatining mustaqil sub`ekti sifatida tayyorlash. Ta`limga innovasion yondashuv o`quv jarayonini shunday tashkil etishga imkon yaratadiki, bunda talaba o`zini ham tinglovchi, ham mana shu jarayonning faol ishtirokchisi sifatida namoyon eta oladi.

“Innovasiya” tushunchasi pedagogik tushuncha sifatida tez-tez uchraydi va “yangilik” ma`nosini anglatadi. Ayni vaqtda innovasiya lotin tilidan tarjima qilinganda “yangi” emas, balki “yangilik sari” ma`nosini beradi. Ushbu metodning “didaktik portreti”dagi asosiy belgilar talabaning o`z ustida ishlashiga, mustaqil ravishda yechim izlashiga, yangi vaziyatda hamkorlikda faoliyat yuritishiga yo`naltirilgan. Innovasion ta`limning dolzarbligi quyidagilardan iborat: ta`limning shaxsga yo`naltirilishi; o`quvchining ijodiy imkoniyatlarini ochishga sharoit izlash. Innovatsion ta`lim asosida quyidagi texnologiyalar yotadi: rivojlantiruvchi ta`lim; muammoli o`qitish; tanqidiy fikrlashni rivojlantirish; darsda muvaffaqiyat vaziyatini yaratish. Innovasion ta`limning asosiy prinsiplari – ijodga yo`naltirish, ko`rgazmali qurollardan foydalanish. Zamonaviy dars haqida gapirganimizda biz axborot va kommunikasiya texnologiyalarini yoddan chiqarmasligimiz lozim. Savodlarimizning asosiy maqsadi informatika vositalarining ahamiyati tugrisida fikr yuritish emas, balki jamiyatning axborotga bulgan extiyojini kondirishdagi usul va vositalar tugrisida tushunchaga ega bulish hisoblanadi. Mazkur extiyoj doim mavjud bulaveradi va biror-bir axborotli muxit doirasida kondiriladi.

Oxirgi davrda axborotli muhitda katta uzgarishlar bo`lib bormoqdaki, ana shu uzgarishlar qog`ozsiz texnologiya zaruratini keltirib chiqaradi. Bu esa uz navbatida, EXMning yanada keng rivojlanishiga sabab bo`ldi, ayniqsa O`qituvchisiz O`qitish texnologiyalari kundan-kun rivojlanib bormoqda.

SHuni qayd etish kerakki, respublikamiz ta`lim muassasalarida yuqorida qayd etilgan masalalar bo`yicha keng qamrovli ishlar olib borilayotganligini ta`kidlagan holda ushbu o`rgatuvchi qo`llanmada ta`lim-tarbil jarayonining samaradorligini orttirish, pedagogik jarayon qatnashchilari o`rtasida do`stona muxitni yaratilishida pedagogik texnologiyalarning tutgan o`rnini yoritish va bu borada o`qituvchilarga metodik yordam ko`rsatish nazarda tutildi.

Bugungi kunda institutimiz viloyatimizdagi barcha o`rta maxsus, kasb-hunar kollejlari bilan hamkorlikda faoliyat ko`rsatmoqda. Institutga biriktirilgan akademik lisey va kasb-xunar kollejlari o`rtasida 2016-2021 yillarga mo`ljallangan hamkorlik shartnomalari tuzilgan. Ushbu shartnomalar asosida akademik liseylar va kasb-hunar kollejlari pedagog kadrlarini zamonaviy axborot-kommunikasiya vositalarini qo`llash asosida ilg`or pedagogik texnologiyalarni egallashlari uchun tegishli shart-sharoitlar yaratish, ularda interfaol ta`lim uslublarini o`quv jarayoniga joriy etish bo`yicha to`plagan tajribalarini

ommalashtirishni ta'minlash maqsadida bir qator professor-o'qituvchilarimiz viloyatimizning turli tumanlari o'zlarining bilim va tajribalarini o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalari pedagog kadrlari uchun ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik va axborot-kommunikasion texnologiyalarni joriy etish bo'yicha ishlarni bajarib kelmoqda, biz bu holda O'zbekiston Respublikamizning amaliyot davrimizda bir necha bor guvohi bo'ldik.

Mamlakatimizda Prezidentimiz tashabbusi bilan 1997 yildan boshlab, kirib kelayotgan har qaysi yangi yilga nom berish, shundan kelib chiqqan holda, alohida Davlat dasturi qabul qilish va belgilab olingan vazifalarni izchil amalga oshirish o'ziga hos an'anaga aylangan. Konstitutsiyamiz qabul qilinganining 23 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan tantanali marosimda YUrtboshimiz 2016 yilni mamlakatimizda «Sog'lom ona va bola yili» deb e'lon qilishni taklif etdilar. Respublikamizning yanada yuksak bosqichga ko'tarish maqsadida o'rta tashlangan ushbu taklif halqimiz tomonidan zo'r mamnuniyat bilan qo'llab-quvvatlandi.

Respublikamizda olib borilayotgan islohotlarning taqdirida yuqori malakali mutaxassislarining roli benihoya katta, bu tO'g'rida prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: «Ertangi kun yangicha fikrlay oladigan, zamonaviy bilimga ega bo'lgan yuksak malakali mutaxassislarni talab etadi». SHu sababli xalqimizning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlari, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalar asosida yetuk mutaxassislar tayyorlash tizimi ishlab chiqildi va jadal sur'atlar bilan xayotga tatbiq etilmoqda.

Hozirgi kunda ta'lim tizimida yangi bosqich bo'lgan kasb-xunar ta'limini zarur me'yoriy xujjatlar, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ta'minlash, shuningdek elektron ma'lumotlar bazasini boyitish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi va amalga oshirilmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qarori bilan «O'rta maxsus, kasb-xunar ta'limining davlat ta'lim standarti» tasdiqlandi. Ularda ko'rsatib o'tilganidek, o'rta-maxsus kasb-xunar ta'limi muassasalarining bitiruvchilariga qo'yiladigan fundamental fanlar va aniq kasb sohasi doirasida nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lish, kompyuter va telekommunikasiya vositalaridan foydalana olish, o'quv fanlari bo'yicha oliy ta'lim muassasalarida taxsil olish uchun zarur bo'lgan bilimlar majmuasiga ega bo'lish vazifasi qo'yilgan.

Bitiruv malakaviy ishining asosiy masalasi ham bugungi kunda 5111000-Kasb ta'limi (Informatika va AT) yo'nalishi bo'yicha taxsil olayotgan, qolaversa kasb-hunar kollejlarning axborot texnologiyalari bo'yicha yetishib chiqayotgan mutaxassislarining bilim va malalarini yanada rivojlantirish uchun, Video va audio tiplarni almashtirish uchun mo'ljallangan Freemake Video Converter dasturi imkoniyatlarini O'rgatuvchi dasturiy ta'minot yaratish masalasi dolzarb masala hisoblanadi. CHunki, bu mavzu bo'yicha yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llab dars mashg'ulotlarini olib borish samarasini aniqlash va tahlil qilish ishlarini amalga oshirishda, mustakil ta'lim olishda dolzarb hisoblanadi.

Ayniqsa, kasb-hunar kollejlarda o'quvchilarga ta'lim berishda elektron kutubxonalarning tashkil etilishi va amalda foydalanilishi, har bir kasb-hunar kollejining ichki intranet saytining yaratili va undan to'g'ridan to'g'ri o'quv jarayoni va mustaqil ta'limda foydalanilishi bugungi kunning eng katta yutuqlaridan deb hisoblashimizga asos bo'la oladi.

Biz ko'rib o'tmoqchi va hal qilmoqchi bo'lgan masalaning asosiy maqsadi ham Freemake Video Converter dasturi imkoniyatlarini O'rgatuvchi dasturiy ta'minot yaratish asnosida kasb-hunar kollejlari, qolaversa ta'lim muassasalarining shu yo'nalishdagi mutaxassislarni tayyorlovchi ta'lim muassasalarida ichki intranet saytlari uchun yangi bir axborot manbaini yaratish va undan kasb-hunar kollejlari, oliy ta'lim muassasalari qolaversa, mustaqil o'rganishni xoxlovchi ukuvlar uchun o'rgatuvchi dasturiy ta'minot, ya'ni elektron vosita yaratishdan iborat.

Fan sohasini formal tasnifi. O'quv fanining dolzarbligi va zarurligi shundan iboratki, O'quvchilar fanni O'zlashtirish davomida professional darajadagi bilimlarni O'zlashtirish, Ulead VideoStudio, SoundForge, AdobePremierePro, PinnacleStudio, MovieMaker, Nero kabi multimediyali hamda tip almashtirish imkoniyatiga ega dasturiy ta'minotlar va multimedia qurilmalari bilan ishlash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Multimedia tizimlari yo'nalishi mutaxassisliklari uchun bunday dasturlar bilan ishlash juda muhim hisoblanadi. Bunday dasturiy vositalarni yaxshi bilgan mutaxassis O'z g'oyalarini ilgari surish, O'z loyihalarini ishlab chiqish, turli animasion taqdimotlarni ishlab chiqish va tushuntirish uchun juda yaxshi imkoniyatlarga ega bo'ladi.

Ushbu sohadagi muammolar va mazkur ishning zarurati. Bitiruv malakaviy ishi mavzusida keltirilgan muammo zahirida kasb-hunar kolleji talabalarining multimedia tizimlari kichik mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha davlat ta'lim standarti asosida O'qitiladigan mutaxassislik fani mustaqil ta'limidagi Freemake Video Converter dasturi imkoniyatlarini O'rganishda mustaqil ta'lim sifatida O'rgatuvchi elektron dasturiy ta'minot yaratish va bu dastur imkoniyatlarini yanada kengroq ochib berish masalasi yotadi. Ushbu muammoni hal qilish orqali talabalarni mutaxassislik fanlarini chuqur O'zlashtirishlari

hamda kelgusida soha bo'yicha O'z faoliyatlarini olib borishlarida maxsus qO'llanma bo'lib xizmat qilishi nazarda tutiladi. Bugungi kunda bunday O'quv O'rgatuvchi dasturiy ta'minot ishlab chiqilmagan. SHu sababli bu mavzuni dolzarb hamda kasb-hunar kolleji talabalari uchun muhim deb hisoblash mumkin.

Loyihaning maqsadi va vazifalari (samaradorligini oshirish, sifatini yaxshilash). Bitiruv malakaviy ishi mavzusida keltirilgan Freemake Video Converter dasturi imkoniyatlarini O'rgatuvchi dasturiy ta'minot yaratishdan asosiy maqsad sifatida talabalarining mustaqil bilim olishlari samaradorligini oshirish, turli animasion fayllarni yaratish hamda O'quvchilarni kO'roq bilim olishlari va yetuk mutaxassis bo'lib yetishlarida manba yaratishga erishishdan iborat.

Masalaning noformal tavsifi (mazkur ishning maqsadi). Keltirib O'tilgan bitiruv malakaviy ishida kasb-hunar kollejalarining Informatika va axborot texnologiyalari, Multimedia tizimlari va texnologiyalari bo'yicha kichik mutaxassislar uchun mutaxassislik fanlari blokidagi Multimedia tizimlari va texnologiyalari fanining mustaqil ta'lim soatida Freemake Video Converter dasturida ishlash bo'yicha talabalar bilimini yanada oshirish uchun O'rgatuvchi dasturiy mahsulot yaratish va ushbu dasturni O'quv jarayonida mavzuga qO'llash hamda yetarli samaraga erishish ishining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Битирув малакавий ишининг тузилиши. Freemake Video Converter dasturi imkoniyatlarini O'rgatuvchi dasturiy ta'minot yaratish mavzusi b'yyicha tay'ёрланган битирув малакавий иши асосан қуйидаги қисмлардан ташкил топган. Булар, кириш, асосий қисм, ҳаёт фаолияти хавфсизлиги, хулоса ва фойдаланилган адабиётлар бўлимларидан иборат.

Битирув малакавий ишининг кириш қисмида янги ахборот технологияларининг бугунги кундаги ҳолати ва унинг ривож, битирув малакавий иши бўйича мавзунинг долзарблиги, битирув малакавий ишининг мақсади ва вазифалари ҳамда битирув малакавий ишининг тузилиши келтириб ўтилади.

Асосий қисм, урта бобдан ташкил топган бўлиб, улар O'rgatuvchi elektron ishlanmalar bo'yicha mavjud manbalar tahlili, Elektron ishlanmalarni yaratishda foydalaniladigan dasturiy vositalar, Freemake Video Converter dasturi imkoniyatlarini o'rgatuvchi dasturiy ishlanma yaratish ҳамда Hayot faoliyati xavfsizligi бобларидан иборат.

Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги бўлимида Elektron metodik tavsiyalar yaratishda kompyuter bilan ishlash qoidalari va Elektron didaktik vositalar yaratishda kompyuter bilan ishlash vaqtida insonning charchash sabablari масалалари қараб ўтилади. Шунингдек, умумий таҳлиллари келтириб ўтилади.

Хулоса ва фойдаланилган адабиётлар бўлимларида эса, битирув малакавий ишини бажариш бўйича умумий хулосалар, таклифлар ва ишни бажариш жараёнида фойдаланилган адабиётлар ҳамда тавсия этиладиган қўшимча адабиётлар келтириб ўтилади.

Малакавий битирув ишининг изоҳ бўлимида яратилган Freemake Video Converter dasturi imkoniyatlarini O'rgatuvchi dasturiy ta'minot матни келтириб ўтилади.

1-bob. O'rgatuvchi elektron ishlanmalar bo'yicha mavjud manbalar tahlili

Kelтириб ўтиладиган ушбу бобда o'rgatuvchi elektron qo'llanma yaratish masalasining o'rganilganlik holatini tahlil qilish, o'rgatuvchi elektron ishlanmalar yaratish va foydalanish bo'yicha mavjud manbalar tahlilini amalga oshirish, o'quv jarayonlarini tashkil etish va mustaqil o'rganishda o'rgatuvchi elektron ishlanmalardan foydalanish samaradorligini tahlil qilish hamda freemake video converter dasturi bo'yicha elektron dasturiy ta'minot yaratish masalasining qo'yilishini shakllantirish amalga oshiriladi.

1.1. O'rgatuvchi elektron ishlanmalar yaratish va foydalanish bo'yicha mavjud manbalar tahlili

Kasb hunar ta'limi uchun maxsus fanlardan elektron qo'llanmani yaratish jarayonida psixologik-pedagogik, texnik-texnologik, estetik va ergonomik talablar qo'yiladi. Elektron qo'llanma ham bosma qo'llanma, o'quv va uslubiy qo'llanma kabi an'anaviy o'quv nashrlariga qo'yilgan didaktik talablarga javob berishi kerak. Didaktik talablar talim berishning spеsifik qonuniyatlariga va mos ravishda o'qitishning didaktik tamoyillariga mos kelishi kerak. Quyida maxsus fanlar bo'yicha yaratiladigan elektron qo'llanmaga bo'lgan talablar keltirilgan:

1. O'qitishda ilmiylikni, fan, texnika va texnologiyalarni so'ng'i yutuqlarni hisobga olish, o'quv materialini mazmunining yetarlicha chuqurligini, ishonchliligini ta'minlaydi. O'quv materialining elektron qo'llanma yordamida o'zlashtirish jараeni o'qitishning zamonaviy usullari bilan mos ravishda qurilishi kerak. Bunday usullarga quyidagilar kiradi: tajriba, eksperiment, solishtirish, kuzatish. abstraktlash. umumlashtirish, yaxlitlantirish, o'xshashlik, tahlil va sintez, modellashtirish uslubi, shu bilan birga matematik modellashtirish. shuningdek tizimli tahlil usullari.

2. O'qitishning erishuvchanlik talablari elektron qo'llanma vositasida amalga oshiriladi va o'quvchilar yoshiga va individual xususiyatlariga xos holda o'quv materialini o'rganishning murakkablik va chuqurlik darajasini aniqlash zaruriyatini bildiradi. O'quv materialini haddan ziyod murakkablashtirish va ortiqcha yuklash mumkin emas, unda ta'lim oluvchi bu materialni egallashtira o'zlashtirish qiyin bo'ladi.

3. O'qitishning muammoviylikni ta'minlash talablari maxsus fanlarni o'qitishda qo'yiladigan asosiy talab bo'lib, ta'lim olish faoliyatining tavsifi va mavjudligi bilan shartlashtirilgan. Agar o'quvchi muammoli vaziyatga duch kelsa. uni mustaqil yechishga harakat qilsa, uning ijodiy qobiliyati va fiqrlash faolligi o'sadi. Ushbu didaktik talabni bajarilish darajasi an'anaviy qo'llanmalar va o'quv qo'llanmalaridan ko'ra. elektron qo'llanma yordamida sezilarli darajada yuqori bo'lishi mumkin.

4. O'qitishning ko'rgazmaliligini ta'minlash talablari, o'quvchilar tomonidan o'rganilayotgan ob'ektlar (mashina va uskunalar), ularning maketlari yoki modellari, mahsulotni tayyorlashning texnologik jarayonini sezgili qabul qilishi va shaxsan kuzatish imkoniyatini hisobga olish zaruriyatini bildiradi.

5 O'qitishning ongliligini, ta'lim oluvchining mustaqilligi va faolligini ta'minlash talablari o'quv faoliyatining yakuniy maqsad va vazifalariga erishishda o'quv axborotini jalb qilish bo'yicha o'quvchilarning mustaqil ishlashlari uchun elektron darsliq va vositalari bilan ta'minlashni ko'zda tutadi. Bunda o'quvchi uchun o'quv faoliyati, yo'naltirilgan maqsad va mazmunni anglatadi. Maxsus fanlar bo'yicha elektron qo'llanmalar tizimli faoliyat yondashuvi asosida ishlab chiqilishi kerak. SHuning uchun elektron qo'llanmada o'quvchi faoliyatining aniq modeli kuzatilishi kerak.

6. Elektron qo'llanmadan foydalanishda o'qitishning tizimliliigi va ketma-ketligi talablari o'rganiladigan maxsus fan sohasida bilimlar va ko'nikmalarning ma'lum tizimining o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi ketma-ketligini ta'minlanishini bildiradi. Bilim. ko'nikma va mahorat ta'lim tizimida mantiqiy tartibda shakllanishi va hayotda qo'llanilishda o'z o'rnini topishi zarur. Buning uchun quyidagilar zarur:

- o'quv materialini tizimlashtirilgan va strukturlashtirilgan holda tavsiya qilish;
- o'quv materialining har bir bo'limida shakllanadigan bilim, ko'nikma va mahoratlarning rivojlanishini ham inobatga olish;
- o'rganilayotgan o'quv materialining fanlararo bog'liqligini ta'minlash;

— o`quv materiali va ta`lim beruvchi ta`sirlarining uzati-lish ketma-ketligini chuqur o`ylab ko`rish;

— bilim berish jarayonini o`qitish mantiqi bilan aniqlanadigan ketma-ketlikda qurish;

— elektron qo`llanma tavsiya qilgan axborotni, o`qitishning mazmuni va uslubi ta`lim oluvchining shaxsiy qobiliyatiga bog`liq holda tanlanishi kerak. Masalan, mazmunli o`yin holatlarini yaratish, amaliy tavsifdagi topshiriqlar va eksperimentlarni real jarayonlar va mavjudotlar modellarini tavsiya qilish yo`li bilan amaliyot bilan bog`lanishni ta`minlash.

7. Elektron qo`llanmadan foydalanishda bilimlarni o`zlashtirish mustahkamligi talablari: o`kuv materialini mustahkam o`zlashtirish uchun uni chuqur fiqrlash, xotirada saqlashga intilish katta ahamiyatga ega.

8. Elektron qo`llanmada o`qitishning ta`limni rivojlantiruvchi va tarbiyaviy funksiyalari birligi talablari.

Ta`lim berish vazifasini basharuvchi an`anaviy nashrlarga qo`yiladigan didaktik talablardan tashqari, elektron qo`llanmaga uni yaratish va joriy qilinishida zamonaviy axborot va telekommunikasion texnologiyalarning ustunliklaridan foydalanish kabi quyidagi o`ziga xos didaktik talablar kuyiladi.

1.2. O`quv jarayonlarini tashkil etish va mustaqil O`rganishda O`rgatuvchi elektron ishlanmalardan foydalanish samaradorligi

O`quvchilarning mustaqil ishi O`quv rejasidagi umumta`lim, umumkasbiy va maxsus fanlarni O`zlashtirish uchun belgilangan O`quv ishlarining ajralmas qismi bo`lib, uslubiy, ilg`or pedagogik va axborot resurslari jihatdan ta`minlanadi hamda bajarilishi reyting tizimi talablari asosida nazorat qilinadi.

O`rta maxsus, kasb-hunar ta`lim muassasalarida O`quvchilarning haftalik mustaqil ishlarining umumiy hajmi 16 soatni tashkil etadi.

O`quv semestri yakunida O`quvchining mustaqil ishi bo`yicha to`plagan reyting ballari har bir fan bo`yicha auditoriyadagi O`quv ishlariga berilgan reyting ballari bilan birgalikda guruh reyting qaydnomasida, O`quvchining reyting daftarchasida (qaysi fandan mustaqil ish bajarilganligi aniq ko`rsatiladi) va O`qish yakunida bitiruvchiga taqdim etiladigan diplom ilovasida qayd etiladi.

Akademik lisey va kasb-hunar kolleji O`quvchilari mustaqil ishining asosiy maqsadi fan O`qituvchisining rahbarligi va nazorati ostida O`quvchi umumta`lim va kasbiy fanlar, kasb va ixtisosliklar bo`yicha nazariy va amaliy ishlarni mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo`lgan bilim va ko`nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish, fikrlash va ijodkorligini oshirish, axborot kommunikasion texnologiyalar bilan mustaqil ishlash qobiliyatlarini yuksaltirishdir.

O`quvchi mustaqil ishining vazifalari quyidagilardan iborat:

-umumta`lim fanlarini mustaqil O`rganishda kutubxona fondida mavjud bo`lgan O`quv adabiyotlaridan foydalanish, berilgan vazifalarni O`z vaqtida bajarish;

-tanlagan mutaxassisligi va kasbi bo`yicha bilim va ko`nikmalarni mustaqil ravishda O`zlashtirishda fan O`qituvchilari va muhandis-pedagoglar maslahatlaridan foydalanish;

-elektron darsliklar, elektron multimediali O`quv qo`llanmalaridan va kasbga oid boshqa ma`lumotlarni fan O`qituvchilari va muhandis-pedagoglar yordamida O`zlashtirish;

-internet va elektron pochta tarmog`idan foydalanishni O`zlashtirish;

-mustaqil ishning natijalarini kasbiy fanlar kafedralarida guruh O`quvchilari ishtirokida taqsimot qilish (referat, kurs ishi, turli model va sxemalar).

O`quvchi mustaqil ishini tashkil etishda muayyan bir kasbiy fan (kurs)ning xususiyatlarini, shuningdek, har bir O`quvchining akademik O`zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

-ayrim kasbiy fanlarning nazariy mavzularini O`quv adabiyotlari, didaktik materiallar hamda elektron O`quv adabiyotlari yordamida mustaqil O`zlashtirish;

-ta`lim muassasasining O`quvchilar konferensiyalari va seminarlarida ma`ruzalar bilan qatnashish;

-laboratoriya ishlarini bajarishga tayyorgarlik ko`rish;

-kurs ishi (loyihasi)ni bajarish;

-O`quv va ishlab chiqarish amaliyotidagi amaliy ko`nikmalarni maxsus adabiyotlardan foydalanib mustahkamlash;

-turli kO`rgazmalarda mustaqil ish natijalari bO`yicha ijodiy ish na`munalari bilan (kasb va ixtisosliklarga oid modellar, sxemalar va detallardan na`munalar tayyorlash) qatnashish;

-anjuman va kO`rik tanlovlarda mustaqil ish natijalari asosida tayyorlangan maketlar bilan qatnashish;

-fanlardan uyga berilgan topshiriqlarni bajarish. O`qitilayotgan fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, O`quvchi mustaqil ishini tashkil etishda boshqa shakllardan ham foydalanishi mumkin.

O`quv fanlari bO`yicha namunaviy va ishchi reja hamda dasturlarda O`quvchi mustaqil ishining shakli, mazmuni va hajmi ifoda etiladi.

O`quvchi mustaqil ishi uchun ajratilgan vaqt byudjetiga mos ravishda har bir fan bO`yicha tegishli kafedralarda mustaqil ishning tashkiliy shakllari, topshiriqlar variantlari ishlab chiqiladi va kafedrada tasdiqlanadi.

Mustaqil ish bajarish uchun kafedralarda fanlar bO`yicha O`quvchilarga zaruriy metodik tavsiyanoma va yO`riqnomalar, qO`llanma hamda kO`rsatmalar ishlab chiqiladi.

SHuni ta`kidlash joizki, yangi yaratiladigan darslik, O`quv qO`llanalarida Vatanimiz shuhratini olamga yoygan fan va madaniyatning gullab yashnashi uchun xizmat qilgan vatandoshlarimiz: Abu Nosir al Farobiy, Ahmad ibn Muhammad al Faorg`oniy, Muhammad ibn Muso al Xorazmiy, Abu Rayhon al Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Mirzo Ulug`ek va boshqa allomalarning fizika, texnika, matematika va tibbiyot sohaslaridagi ibratli ishlari yoritilsa maqsadga muvofiq bO`ladi. Zero darsliklarda millat fikrining, millat tafakkurining va millat mafkurasining eng ilg`or namunalari aks etishi zarur. Elektron uslubiy ta`minotlar tO`g`risida fikr yuritishdan oldin, ularning bosma darsliklardan farqli xususiyatlari tO`g`risida tO`xtalamiz. Klassik tushunchada darslik bu O`quvchilar uchun kitob bO`lib, unda bilimlarning ma`lum sohasidagi O`quv materiali fan, texnika va texnologiya, hamda madaniyatning zamonaviy yutuqlari darajasida tizimli bayon qilinadi. Demak, elektron O`rgatuvchi qO`llanma ham, bosma qO`llanma ham umumiy belgilarga ega va aynan:

1) O`quv materiali bilimlarning ma`lum sohasi bO`yicha bayon kilinadi;

2) O`quv materiali fan, texnika. texnologiya va madaniyatning zamonaviy yutuqlari darajasida yoritiladi;

3) O`quv materiali darsliklarda tizimli bayon qilinadi, ya`ni darslikning butunligini ta`minlaydigan, ma`noli munosabat va aloqali, kO`plab elementlardan tashkil topgan asarni O`zida tasvirlaydi.

Xorijiy davlatlarda uslubiy va axborot dasturli vositalarni ishlab chiqish uchun yuqori malakali psixologlar, maxsus fan O`qituvchilar, kompyuter dizaynerlari va boshqa mutaxassislar jalb etiladi. yetakchi korxona va firmalari O`quv yurtlarida kompyuterli O`quv tizimlarini yaratish loyihalarini moliyalashtiriladi va bu sohada izlanishlar olib borishadi. Ilk O`quv elektron dasturlik vositalarni yaratish uchun bevosita dasturlashtirish texnologiyasidan foydalanilgan. Dasturchi sifatida kO`pincha oliy O`quv yurtlarining yuqori bosqich talabalari va aspirantlari ishtirok etishgan.

Mustaqil ta`lim olishning yana bir afzallik jihati shundaki, unda zamonaviy axborot-kommunikasiya vositalariga murojaat qilish, shu asosida kompyuter hamda informasion texnologiyalar bilim va kO`nikmalariga ega bO`lish O`z-O`zidan amalga oshiriladi. Bugungi kunga kelib axborot tezligi maksimal darajaga yetgan bO`lib, global tarmoqdan istalgan ma`lumotni bir necha soniyada, istalgan (matnli, grafikli, rasmi, audio va video) kO`rinishda qabul qilish, saqlash, foydalanish va O`zgartirish mumkin. Bu esa O`z ustida ishlayotgan har bir talabaga izlanishdan tO`xtab qolmasligi uchun yangi fikrlar va g`oyalar beradi.

1.3. Freemake Video Converter dasturi bO'yicha elektron dasturiy ta'minot yaratish masalasining qO'yilishi

Bitiruv malakaviy ishida kasb-hunar kollejlari informatika va axborot texnologiyalari mutaxassislik bO'yicha ta'lim olayotgan talabalar uchun Freemake Video Converter dasturi imkoniyatlarini O'rgatuvchi dasturiy ta'minot yaratish masalasi berilgan bO'lib, mavzuning nomidan ham ko'rinib turibdiki, asosiy vazifa talabalarning mustaqil O'rganishlari uchun O'rgatuvchi dasturiy mahsulot ishlab chiqish nazarda tutiladi. Bitiruv malakaviy ishini bajarish davomida quyidagi masalalarni yechish asosiy maqsad qilib olinadi:

- O'rgatuvchi elektron qO'llanma yaratish masalasining O'rganilganlik holatini tahlil qilish;
- O'rgatuvchi elektron ishlanmalar yaratish va foydalanish bO'yicha mavjud manbalar tahlilini amalga oshirish;
- O'quv jarayonlarini tashkil etish va mustaqil O'rganishda O'rgatuvchi elektron ishlanmalardan foydalanish samaradorligini tahlil qilish;
- Freemake Video Converter dasturi bO'yicha elektron dasturiy ta'minot yaratish masalasining qO'yilishini shakllantirish;
- Elektron dasturiy mahsulotlarni yaratishda foydalaniladigan dasturiy vositalarni tahlil qilish va ulardan mavzuga mos dasturiy vositani ajratish;
- O'rgatuvchi dasturiy mahsulotlarni yaratishda Camtasia Studio dasturi imkoniyatlarini ochib berish;
- O'rgatuvchi elektron qO'llanma yaratishda WebBuilder imkoniyatlaridan foydalanish;
- Freemake Video Converter dasturi imkoniyatlariga oid manbalarni shakllantirish;
- O'rgatuvchi dasturiy ta'minot yaratish loyihasini ishlab chiqish;
- Freemake Video Converter dasturi imkoniyatlarini O'rgatuvchi dasturiy ta'minot yaratish texnologiyasini ishlab chiqish;
- Yaratilgan dasturiy mahsulotdan foydalanish yo'riqnomasini shakllantirish;
- O'rgatuvchi elektron qO'llanmalarni yaratishda mehnat muhofazasi qoidalarini ishlab chiqish hamda mustaqil O'rganuvchilar uchun kompyuter bilan ishlaganda hayot faoliyati xavfsizligi qoidalariga rioya qilish talablarini ochib berish;
- Bajarilgan ishlar yuzasidan xulosa va takliflarni ishlab chiqish;
- foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini keltirish hamda yaratilgan elektron qO'llanma dasturi va ko'rinishlarini ilova bo'limida keltirib o'tishni amalga oshirish talab qilinadi.

Yuqoridagi masalaning qO'yilishidagi fikrlardan ko'rinadiki, kasb-xunar kollejlari va oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan Informatika va AT fani bO'yicha mustaqil ta'lim olish uchun, qolaversa, animasion namoyish va O'rgatuvchi elektron dasturiy vositalarni yaratishga qiziquvchi talabalar uchun Freemake Video Converter dasturi imkoniyatlarini O'rgatuvchi dasturiy ta'minot yaratish har bir O'quvchi, izlanuvchi uchun yangi axborot texnologiyalarini qO'llab ilm olish saviyasini oshirib beradi. YA'ni O'rganuvchi O'qituvchisiz elektron qO'llanma asosida mustaqil O'rgana oladi va dasturiy vosita yordamida animasion namoyishlarni mustaqil yarata olish imkoniyatiga ega bo'ladi.


2-bob. Elektron ishlanmalarni yaratishda foydalaniladigan dasturiy vositalar

Ushbu bobda elektron dasturiy mahsulotlarni yaratishda foydalaniladigan dasturiy vositalarni tahlil qilish va ulardan mavzuga mos dasturiy vositani ajratish, o'rgatuvchi dasturiy mahsulotlarni yaratishda camtasia studio dasturi imkoniyatlarini ochib berish, o'rgatuvchi elektron qo'llanma yaratishda webbuilder imkoniyatlaridan foydalanish masalalari ko'rib o'tiladi.

2.1. Elektron dasturiy mahsulotlarni yaratishda foydalaniladigan dasturiy vositalar

Elektron metodik tavsiyalar ishlab chiqishda didaktik materiallar yaratish vositalari

Power Point ishga tushirilganda ekranda ko'rsatilgan taqdimot yaratish muloqot darchasini ko'rish mumkin.



Bu muloqot darchasi orqali taqdimot yaratish turini tanlab olish mumkin bo'ladi. Quyidagi 4 ta asosiy bo'lim berilgan, ularning har biri haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

- «Master avtosoderjaniya» (Avtomundarija ustasi) — ma'ruzachi ismi, familiyasi, mavzu nomi, taqdimot turi, uslubi, rangli chizmasini kiritib, bir necha slayddan iborat bo'lgan tayyor taqdimotki chiqaradi.

- «**Shablon prezentasii**» (Taqdimot qoliplari) — taqdimotni jihozlash turini tanlash va ularda ish olib bo-rish imkonini beradi.

- «**Pustuyu prezentasiyu**» (Bo'sh taqdimotni) — mustaqil ravishda taqdimot tuzish imkonini beradi.

- «**Otkro't prezentasiyu**» (Taqsimotlarni ochish) — kompyuter xotirasida va diskda mavjud bo'lgan ko'rgazmali fayllarni ochadi. har bir foydalanuvchi dasturda ish olib borishi uchun yuqoridagi bo'limlardan birini o'z maqsadiga ko'ra tanlab oladi. Dastur ishini bo'sh taqdimotdan ham boshlash mumkin. Buning uchun sichqoncha ko'rsatkichi «**Pustuyu prezentasiyu**» (Bo'sh taqdimotni) bo'limiga olib kelinadi va «OK» tugmasi bosiladi. Bunda quyidagi muloqot darchasi hosil bo'ladi.


Bu yerda ko'rsatilgan har bir slaydni tanlab olish imkoniyati bor. Buning uchun yo'nalish tugmalari yoki sichqonchadan foydalanish mumkin.

Muloqot darchasidan kerakli holat, masalan: «**Pustoy slayd**» (Bo'sh slayd) ko'rinishi tanlanadi va «OK» tugmachasi bosiladi. Bu amallar bajarilgandan so'ng **Power Point** dasturining asosiy oynasi hosil bo'ladi (9.4-rasm). U sarlavhalar qatori, gorizontal menyu, uskunalar paneli («standart», «bichimlash» va rasmlar bilan ishlash), rejim (holat) tugmachalari (slaydlar rejimi, strukturalar rejimi, saralash rejimi, namoyishlar rejimi) va ishchi maydonni o'z ichiga oladi.

Power Point ekranining pastki chap burchagida ish rejimi va uning turlarini boshqaruvchi tugmachalar (piktogrammalar) guruhi joylashgan.

Maxsus effektlarni o'rnatish

Maxsus effektlarni o'rnatish deganda namoyishlarni bir slayddan boshqa slaydga o'tish tezliklari



ketma-ketligi tushuniladi. Bu funktsiyani bajarish uchun Power Point dasturining «**Perexod slayda**» (Slaydning o'tishi) nomli muloqot darchasi bo'lib, u gorizontal menyudagi quyidagi buyruqlar orqali ishga tushiriladi.


«**Pokaz slaydov**» (Slaydlarni ko'rsatish) — «**Perexod slayda**» (Slaydning o'tishi). Bu buyruqlar bajarilgandan so'ng ekranda quyidagi oyna hosil bo'ladi.

Bu oynada ish yuritish, ya'ni bir slayddan boshqa slaydga o'tish ikki xil usulda olib boriladi:

1. Sichqoncha tugmasini bosish orqali. Bunda oynaning chap pastki qismidagi «**Prodvijenie**» (harakatlanish) darchasidagi «**po shelchku**» oldiga belgi qo'yiladi.

2. Avtomatik ravishda (belgilangan vaqtdan keyin). Buning uchun 1-usuldagi ish takrorlanadi. Faqat «**Prodvijenie**» (harakatlanish) darchasida «**Avtomaticheski posle**» oldiga belgi

qo'yiladi va uning tagida slaydlarning almashinish daqiqasi kiritiladi.



Shundan so'ng «**Primenit ko vsem**» (Barcha slaydlarga qo'llash) yoki joriy (ish yuritayotgan) faylning slaydlarini almashtirish uchun «**Primenit**» (qo'llash) buyruqlari tanlanadi.

Namunaviy slaydlar. Namunaviy slaydlar darchasi shrift turlari, o'lchami, slaydlarning asosiy elementini birlashtirish usullarini o'z ichiga oladi. Foydalanuvchi xohishiga qarab namunaviy slaydga taqdimotning qolgan barcha slaydlarida paydo bo'luvchi matn yoki rasm qo'shishi mumkin. Bunda sarlav?alar qo'yish, sana, vaqt hamda slayd raqami maydonlari mavjud. Namunaviy slaydlar darchasiga gorizontal menyu orqali quyidagi buyruqlar orqali o'tiladi va kerakli namunalar tanlanib olinadi:

«**Vid**» (Ko'rinish) — «**Obrazes**» (**Namuna**) — «**Obrazes slaydov**» (Slaydlar namunasi).

Yuqoridagi buyruqlar bajarilsa slaydlar ketma-ketligi ishga tushadi.

Animasiya — bu, ob'yektlar, kameralar, yorug'lik manbalarining o'zaro joyini almashtirish yoki ularning parametrlarini vaqt bo'yicha o'zgarishiga ega bo'lgan vazifa yoki topshiriqdir. hozirgi paytda kompyuterli grafika vositalarini qo'llashning ushbu sohasi kuchli rivojlanishni boshdan kechirmokda. Animasion grafika o'zida rang tasvir va illyustrativ grafika (mashinaviy tasvirlar, illyustrativ matnlar, chizmalar, eskizlar va boshqalar) bilan ishlay olish imkoniyatiga ega.

Televizorimiz ekranida har kuni tomosha qiladigan reklama kliplari, turli multfilmlarning ko'pchiligi ana shu animasion grafika asosida yaratilgan. Misol uchun Uolt Disney studiyasi tomonidan bundan 50 yil muqaddam yaratilgan «Oqqiz va yetti gnomlar» multfil'mi birinchi animasion tasma bo'lgan. Yoki 1991 yilda ushbu kompaniya tomonidan yaratilgan «Sohibjamol va maxluq» multfilmini ko'pchiligingiz sevib tomosha qilasiz.

Animasion effektlarni qo'llash uchun bichimlash uskunolari panelidagi yul-duzcha tugmachasi bosiladi. Natijada quyidagi «**Effekti animatsii**» (Anima-siya effektlari) uskunalar paneli hosil bo'ladi. Ushbu uskunalar panelidagi asosiy elementlar bilan tanishib chiqamiz.

1. Sarlavha animasiyasi. Bunda animasiya nomi yoziladi.

2. Slayd matnlarining animasiyasi. Matn yozilgan barcha slaydlarni ekranda namoyish etadi.
3. Kirish effekti. Bu piktogrammaga sichqoncha ko'rsatkichi keltirib bosilgandan so'ng, namoyish ekranida belgilarning chiqish tezliklari hosil bo'ladi. Ya'ni, belgilarning ketma-ket tartibda chiqishi ta'minlanadi.
4. Uchish effekti. Belgilarning namoyish ekranida ketma-ket uchib tushishini ta'minlaydi.
5. Kamera effekti. Namoyish slaydining tasvirini ta'minlaydi.
6. Portlash effekti. Bunda slaydga yozilgan axborotlarning ekranda bir marta hosil bo'lib, yo'qolish holati ta'minlanadi.
7. Lazerli effekt. Slayddagi yozuvlarning uchish tezligini va turli tomonlardan uchib tushish parametrlarini o'zgartirish piktogrammasidir.
8. Yozuv mashinkasi animasiyasi. Bunda kiritilgan belgi-lar endi yozilayotgan yozuv mashinkasidagi kabi hosil bo'ladi.
9. Otib tushirish effekti. Bunda yaratilgan slayddagi belgilar biror tugma bosilguncha yashirilib turadi.
10. Animasiyalarni sozlash. Bu piktogramma animasiyalar parametrlarini o'zgartirish uchun xizmat qiladi.

Power Point dasturidagi qo'shimcha elementlar bilan ishlash

Rasm qo'yish. Taqdimotga rasm qo'yish yoki rasmni boshqa takdimotdan olib qo'yish mumkin. Buning uchun quyidagi ishlar bajariladi: Rasm qo'yish uchun:

- Rasmni qo'yish kerak bo'lgan slayd ko'rinishi tanlanadi.
- «**Vstavit risunok**» tugmachasi bosiladi va Clip Art darchasidagi kerakli rasm tanlab olinadi.
- Shu darchadan «**Vstavit**» (Kiritilsin) tugmachasi bosilgandan so'ng yaratilayotgan prezentatsiyada rasm paydo bo'ladi.

Hosil bo'lgan rasmning kattaligini o'zgartirish va uni boshqa joyga ko'chirish ham mumkin. Buning uchun:

- Rasm faollashtiriladi, ya'ni rasm ustida sichqoncha ko'rsatkichi bosiladi;
- Chegaradagi ramka orqali rasm kerakligicha kattalashtiriladi yoki kichiklashtiriladi;
- Faollashgan ramkadagi rasm sichqoncha orqali kerakli joygacha sudrab o'tkaziladi.

Boshqa taqdimotdan rasm olib qo'yish uchun: «**Vstavka**» (qo'yish) — «**Risunok**» (Rasm) — «**Iz fayla**» (Fayldan) buyruqlari tanlanadi. Natijada, ekranda uskunalar paneli paydo bo'ladi. Bu panel «**Nastroyka izobrajeniya**» (Tasvirni sozlash) paneli bo'lib, u orqali rasmni ko'chirish, bo'yash, ramka o'tkazish, rasm kontrastini (tiniqligini) to'g'rilash mumkin.

Rasmni skaner orqali ham qo'yish: buning uchun «**Vstavka**» (qo'yish) menyusida «**Risunok**» (Rasm) keyin «**So skanera**» (Skanerdan) buyrug'i tanlanadi. Rasm «**MS PHOTO EDITOR**» da ochiladi va uni o'zgartirish mumkin bo'ladi. Taqdimotga rasm qo'yib, uni o'zgartirish, masalan, chegara ranglarini o'zgartirish, aloqida fragmentlar o'rnini o'zgartirish, bir necha rasmlarni birlashtirish mumkin.

Jadvallar qo'yish. *Power Point* dasturida boshqa dasturlardagi kabi jadval ko'rinishidagi ma'lumotlarni ham kiritish va uni tahrirlash mumkin. Bu standart uskunalar panelidagi quyidagi piktogrammalar yordamida amalga oshiriladi, ya'ni:

- MS Word yoki MS Excel tugmachalar (piktogrammalar) dan birini tanlab bosiladi;
- jadvalning kerakli ustun va satr parametrlari tanlab olinadi va ekranda hosil bo'lgan jadvalga sonli va matnli qiymatlar kiritiladi;
- jadvalga o'zgartirishlar kiritiladigan bo'lsa jadval faollashtiriladi, ya'ni sichqoncha ko'rsatkichi jadval tasviri ustida ikki marta bosiladi.


Jadval bilan ishlashni tugallash sichqoncha ko'rsatkichi orqali amalga oshiriladi.

2.2. O'rgatuvchi dasturiy mahsulotlarni yaratishda SnagIt hamda CamtasiaStudio7 dasturi imkoniyatlari

Videodars ishlanmalarini yaratish uchun mo'ljallangan dasturiy vositalarning juda ham turlari yaratilgan bo'lib, bugungi kunda ulardan SnagIt hamda CamtasiaStudio7 dasturiy ta'minotlari keng qo'llanilib kelinmoqda. Bu dasturiy ta'minotlar turli xil mavzularda, ayniqsa, axborot texnologiyalariga oid mavzular bo'yicha videodars ishlanmalarini yaratish juda ham qo'l kelmoqda.

Bu dasturiy ta'minotlarning imkoniyatlari qanday, keling shu haqda fikrlashib o'taylik.

Snagit dasturiy ta'minoti o'rnatish uchun juda ixcham, tez o'rnatiluvchi, qo'shimcha serial raqamlarni talab qilmaydigan, tekin tarqatiladigan hamda unchalik katta bo'lmagan dasturiy ta'minotlardan biri hisoblanadi. Dastur ta'minoti alohida xususiyatga ega bo'lib, uni funksional tugmalarga biriktirish orqali ixtiyoriy vaqtda murojaat qilinishi mumkin. Dasturni ishga tushirilganda uni ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:



Dasturni oyna ko'rinishidan ham bilish mumkinki, unda rasmga olish, mantnni belgilash hamda videoga olish imkoniyatlari mavjud. Faqat bu rejimlarni tanlash orqali ularni parametrlarida o'zgarishlarni amalga oshirish mumkin.

SHuningdek, kompyuter oynasining ixtiyoriy joyini belgilab olish orqali rasmga olish, vidoetasvirga olish imkoniyatlari ham mavjud.

Bizga ma'lumki, o'rgatuvchi elektron qo'llanmalar yordamida foydalanuvchilarga bilim berishda foydalaniladigan eng yaxshi qurol hisoblanadi. 3D Max dasturida standart primitivlar yaratishni o'rgatuvchi dasturiy ishlanma yaratish uchun biz CamStudio dasturidan foydalanamiz. Buning uchun dasturni kompyuterga o'rnatamiz. Dastur o'rnatib bo'lingach ekranda CamStudio yorligi paydo bo'ladi. Bu yorliq yordamida dasturni ishga yuklaymiz va ekranda quyidagi ko'rinish hosil bo'ladi.



Bu yerdan capture – record tugmasini bosamiz ish tajriba stendini yaratishni boshlaymiz. Yaratilgan stendni saqlash uchun stop tugmasini bosamiz. Ekranda saqlash uchun taklif va bajarilgan ish ketma-ketligini kayta namoyish qilish uchun ruxsat suraladi. Agar OK tugmasini bossak, bizni tayyorlagan tajriba stendimiz ekranda to'liq namoyish etiladi.

Yaratilgan videodars mashg'uloti faylining kengaytmasi .avi bo'ladi. Bu kengaytmaga ega bo'lgan saxifani esa Internet Explorer orkali namoyish etish imkoniyati mavjud.

2.3. O'rgatuvchi elektron qO'llanma yaratishda WebBuilder imkoniyatlaridan foydalanish

Bugungi kunda eng rivojlanib borayotgan dasturiy vositalardan biri bu WYSIWYG Web Builder dasturiy vositasi bo'lim, bu dastur yordamida turli xildagi elektron sahifa elektron qO'llanmalarni yaratish imkoniyatlarida juda ham keng dasturiy vositalardan biri hisoblanadi. Quyida ushbu dasturni O'rnatish va foydalanish bo'yicha boshlang'ich ma'lumotlar bilan tanishib chiqamiz.

WYSIWYG Web Builder dasturini O'rnatishdan avval internetdagi ushbu dastur uchun yaratilgan saytdan O'rnatiluvchi dasturni ko'chirib olinishi lozim. Buning uchun internet tarmog'iga ulanib, brauzer oynasidan <http://wysiwygwebbuilder.ru/download.html> saytiga murojaat qilinadi. Bu yerda saytning quyidagi oynasi hosil bo'ladi.



Oynada ko`rinib turgan sahifadan oxirgi variantdagi WYSIWYG Web Builder dasturini ko`chirib olinadi.


Endi ushbu dasturni O`rnatish jarayonini boshlash mumkin. Buning uchun setup.exe faylini ustida sichqoncha tugmasini 2 marta bosiladi va dasturni O`rnatish jarayoni boshlanadi.

Dasturni O`rnatishda alohida qo`llanma mavjud bo`lib, bu qo`llanmani avval yaxshilab O`qib olish lozim, unda dasturni O`rnatish bo`yicha barcha ko`rsatmalar keltirib O`tilgan bo`ladi.

Dastur aktiv holatda C: g` Program Files g` WYSIWYG Web Builder 9 g` papkasiga O`rnatiladi. Yana shunga ham e`tibor berish lozimki, shablonlar va yaratiladigan dasturlar aktiv holatda My Documents g` WYSIWYG Web Builder g` papkasiga saqlanadi.


Dasturni O`rnatish jarayoni juda ham oddiy bo`lib, uni O`rnatilgandan so`ng, kompyuterni qayta O`chirib yoqishning ham xojati bo`lmaydi.

Dastur O`rnatib bo`linganidan keyin ishchi stolda va bosh menyuda uning yorlig`i paydo bo`ladi. Bu yorliq orqali dasturni ishga tushirish mumkin. Dastur ishga tushirilgandan so`ng, ekranda WYSIWYG Web Builder dasturining ishchi oynasi paydo bo`ladi. Bu oyna ko`rinishi quyidagicha:



Oynaning yuqori qismida menyu komandalar, keyin instrumentlar paneli va asosiy ishchi oyna paydo boʻladi. Ekranning chap qismida esa, instrumentlar, dasturni yaratishda foydalaniladigan barcha elementlar keltirib Oʻtiladi. Ekranning Oʻng tomonida yaratiladigan sahifa fayli nomlari, har bir elementning xususiyatlari va xodisalar keltirib Oʻtiladi.

SHuningdek, bu dasturda alohida shablonlar ham keltirib Oʻtiladi. Bu shablonlarni File-Web Site From Template menyusidan yuklash mumkin boʻladi. Bu oyna quyidagi rasmda keltirib Oʻtiladi:



Agar rasmga yaxshiroq eʼtibor berilsa, uning pastki qismida Install tugmasi mavjud boʻlib, bu tugmani bosish orqali, yangi shablonlarni internetdan yoki kompyuterda mavjud boʻlsa Oʻrnatib olish imkoniyati mavjud.

Dasturning qOʻshimcha imkoniyatlari bilan esa, dastur bilan ishlash jarayonida Oʻrganish tavsiya etiladi.

